



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Наманган вилояти

Namangan viloyati 160100, Namangan shahri, A.Temur ko'chasi, 105-uy, Tel. (69)-233-02-50, E-mail: namexpert@umail.uz www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: Isakdjanov Avazbek Ismondjonovich

Sana:15-12-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 28076

Obyekt nomi «Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Uzumzor" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash»

Buyurtmachi - "Suv ta'minoti va oqava suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Namangan viloyati hududiy boshqarmasi

Bosh loyihachi - "O'zbekkommunalloyihaqurilish" DUK

Litsenziya AL-000324 2.11.2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan berilgan

Moliyalashtirish manbai - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi "Suv ta'minoti va oqava suv tizimini rivojlantirish jamg'armasi" hisobidan

Bosh pudratchi - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-apreldagi 230-sonli qaroriga asosan - "Yangi avlod qurilish invest" MCHJ

Qurilish turi Yangi qurilish

Murojaat raqami: № 26908

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5048-sonli qarori.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-apreldagi 230-sonli qarori.
- 1.3. To'raqo'rg'on tumani hokimining 2021-yil 7-apreldagi 193-sonli qarori.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasi "O'zsvu'ta'minot" AJ tomonidan tasdiqlangan, Namangan viloyat Qurilish bosh boshqarmasi hamda buyurtmachi bilan kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.5. Namangan viloyat Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan berilgan 2021-yil 7-iyundagi 1714-1714224-21526-sonli arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.6. Muhandislik tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar.
- 1.7. "O'ZGASHKLITI" DUK Namangan filiali tomonidan 2021-yilda bajarilgan qurilish maydonining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risida xulosa.
- 1.8. Loyiha va tadqiqot ishlari uchun tuzilgan 24.05.2021-yildagi 250-VK/2021-sonli shartnoma.
- 1.9. Tasdiqlangan nuqson dalolatnoma.
- 1.10. "O'zsvu'ta'minot" AJ "Namangan suv ta'minoti" MCHJ tomonidan tasdiqlangan va "Suv ta'minoti va oqava suv obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" UK Namangan viloyati hududiy boshqarmasi,

loyihachi, pudratchi va "O'ZGASHKLITI" DUK Namangan filiali bilan kelishilgan 2-dekabr 2021-yildagi 22-sonli yig'ilish bayoni.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Yordamchi loyihachi "OMAD ISHONCH KELAJAK LOYIHA" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan "Ishchi loyiha"ning ishlab chiqish bosqichidagi loyiha hujjatlari:

- Umumiy tushuntirish yozuvi.
- Tashqi suv tarmog'i. Umumiy ma'lumotlar, suv tarmog'ining rejasi, bo'ylama kesim, tugunlar va quduqlar, jixoz va uskunalarga bo'lgan ehtiyoj jadvali.
- Bakteritsid binosi. Arxitektura va qurilish, isitish va shamollatish, elektr yoritish va texnologik qismlari.
- Nasos stansiyasi. Arxitektura va qurilish, elektr yoritish va texnologik qismlari.
- Qorovulxona. Arxitektura va qurilish, elektr yoritish qismlari.
- 1 o'rinli hojatxona. Arxitektura va qurilish qismi.
- 25 m³ suv minora. Arxitektura va qurilish qismi.
- Tashqi qo'rg'on devor. Arxitektura va qurilish qismi.
- Bosh reja va tashqi muhandislik tarmoqlari.
- Smeta hujjatlari.

2.2. Buyurtmachi bilan kelishilgan va pudratchi tomonidan tasdiqlangan qurilish materiallari va jixozlari narxlari o'zaro kelishuv bayonnomasi.

2.3. Buyurtmachining 20.08.2021-yildagi 307-sonli va 26.08.2021-yildagi 318-sonli xatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Qurilish uchastkasi tavsifi.

Loyihalananayotgan suv tarmog'i To'raqo'rg'on tumani "Uzumzor" MFY hududida joylashgan bo'lib, tanlangan joy IV-iqlimiy sharoitga to'g'ri keladi. Zilzilaga bardoshlilik bo'yicha - 8 ball. Tashqi havo harorati - 14⁰s. Me'yoriy qor yuklamasi - 0,50 kPa, shamol yuklamasi - 0,38 kPa. Poydevor ostining 1-qatlamida supes (qatlam qalinligi 1,1-1,5 metrgacha) va 2-qatlamida galechnik (qatlam qalinligi 0,8-1,2 metrgacha) asos bo'lib xizmat qiladi. Yerning seysmik xolati bo'yicha toifasi - II. Cho'kuvchanligi bo'yicha 1-guruh tuproq turiga to'g'ri keladi. Yer osti suvlari 3 metr chuqurlikkacha aniqlanmagan. Yerni tuzilish relyefi - tekis.

3.2. Bosh reja.

"Uzumzor-1" suv olish inshootining 1088 m² hududida joylashgan: ta'mirlananayotgan tik quduq va loyihalananayotgan bakteritsid binosi, 25 m³ suv minorasi, 50 m³ xajmli suv saqlash xovuzi - 2 dona, nasos stansiyasi, qorovulxona, 1 o'rinli hojatxona, tashqi qo'rg'on devor. Hudud obodonlashtiriladi.

"Uzumzor-2" suv inshootining 296 m² hududida joylashgan: loyihalananayotgan bakteritsid binosi, 25 m³ suv minorasi, tashqi qo'rg'on devor. Hudud obodonlashtiriladi.

3.3. Loyihaning asosiy yechimlari.

1. Suv tarmog'i (yangi qurilish).

Loyihalananayotgan suv tarmog'i polietilen quvurlardan iborat bo'lib, umumiy uzunligi - 19828 metr, shu

jumladan: Ø200mm – 19 metr, Ø160 mm – 860 metr, Ø110mm – 4521 metr, Ø75mm – 6728 metr, Ø32mm – 500 metr, Ø25mm – 300 metr, Ø20mm – 6900 metr. Tarmoqda yig'ma temir-beton quduqlar ko'zda tutilgan. Suv quvurini avtomobil yo'lidan kesib o'tishi uchun po'lat quvurdan g'ilof ko'zda tutilgan. Loyihalanayotgan suv tarmog'i To'raqo'rg'on tumani "Uzumzor" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi.

2. Bakteritsid binosi - 2 dona (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, "sendvich" panellardan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-2" o'qlari bo'yicha 2,7mx4,3m.ni tashkil etadi, xonalar balandligi - 3,0 m.

3. Nasos stansiyasi (yangi qurilish).

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, "sendvich" panellardan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, "A-B" va "1-2" o'qlari bo'yicha 3,0mx3,0m.ni tashkil etadi, xona balandligi - 3,0 m.

4. 50 m³ xajmli suv saqla xovuzi - 2 dona (yangi qurilish).

Loyihalanayotgan xovuz - yaxlit quyma temir-betondan (beton markasi V20), to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 6,0mx6,0m o'lchamdan iborat, xovuzning chuqurligi - 1,8 metr.

5. Qorovulxona.

Bino - 1 qavatli, yerto'lasiz, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 3,0mx3,4m o'lchamdan iborat, xona balandligi - 3,0 metr.

6. 1 o'rinli hojatxona.

Bino - 1 qavatli, o'rali, pishiq g'ishtdan, to'g'ri to'rtburchak shaklni tashkil etib, devor o'qlari bo'ylab 1,4mx1,6m o'lchamdan iborat, xona balandligi - 2,45 metr.

7. 25 m³ suv minorasi - 2 dona (yangi qurilish).

Obyektga 901-5-32s namunaviy loyiha bog'langan.

8. Tashqi qo'rg'on devor (yangi qurilish).

Loyihada umumiy uzunligi 204 metr va balandligi 2,5 metr bo'lgan metall "3D" setkali devor qurish hamda metall darvozalar o'rnatish ko'zda tutilgan.

9. Tik quduq (ta'mirlash).

Tasdiqlangan nuqson dalolatnomasiga asosan mavjud suv olish inshootidagi tik quduqni "otkachka" qilish, suv nasosi o'rnatish va boshqa ishlar bajarish ko'zda tutilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Suv ta'minoti - "Namangan suv ta'minoti" MCHJ To'raqo'rg'on tumani bo'limining 1.06.2021-yildagi 16-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib mavjud suv olish inshooti qabul qilingan.

4.2. Elektr ta'minoti ("Uzumzor-1") - "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" Ajning 28.06.2021-yildagi 35-18/0868-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/10 kVli "Soxibkor"dan chiqqan 10 kVli "To'qay" elektr uzatish tarmog'ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPs-40/10/0,4 kv, AIISKUE tizimi o'rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko'zda tutilgan.

4.3. Elektr ta'minoti ("Uzumzor-2") - To'raqo'rg'on tumani elektr ta'minoti korxonasining 31.08.2021-yildagi 103-sonli texnik shartiga muvofiq nazarda tutilgan. Ulanish nuqtasi etib p/st 110/10 kVli

“Soxibkor”dan chikkan 10 kVli “To‘qay” elektr uzatish tarmog‘ining yaqin nuqtasi qabul qilingan. Loyihada KTPs-25/10/0,4 kv, AIISKUE tizimi o‘rnatish hamda hududni tashqi elektr yoritish tizimi qurish ko‘zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

- Suv tarmog‘ining bosh rejasi buyurtmachi, Namangan viloyati Qurilish bosh boshqarmasi, “Namangan suv ta‘minoti” MCHJ, “Hududgaz Namangan” gaz ta‘minoti filiali, “O‘zbektelekom” AK Namangan filiali, “Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ, Namangan viloyati SEO va JSB bilan kelishilgan.
- Xonadonlarga suv hisoblagichlarni ulanish sxemasi buyurtmachi va “Namangan suv ta‘minoti” MCHJ bilan kelishilgan.
- Namangan viloyati Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasining 17.07.2021-yildagi 01-19/07-726-sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Belgilansinki, qayta ekspertiza o‘tkazilishi munosabati bilan 14.09.2021 yilda berilgan №19711 yig‘ma ekspert xulosa – bekor qilinadi.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxassislarining izohlariga muvofiq loyiha hujjatlariga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- 6.1.1. Suv olish inshooti bosh rejasi – taqdim etildi.
 - 6.1.2. Umumiy tushuntirish yozuvida konstruktiv yechimlari – berildi.
 - 6.1.3. Bakteritsid binosida pol tarkibi – o‘zgartirildi.
 - 6.1.4. 25 m³ suv minora poydevor chizmasi – o‘zgartirildi.
 - 6.1.5. Qorovulxonaning tom issiqlik izolyatsiyasi va uning qalinligi bo‘yicha loyiha yechimi – berildi.
- Suv ta‘minoti.
- 6.1.6. Avtomobil yo‘llarini kesib o‘tishda quvurlarni himoyalash maqsadida po‘lat g‘iloflar – ko‘zda tutildi.
 - 6.1.7. Loyihada epoksid qoplamali zadvijskalar – ko‘zda tutildi.
 - 6.1.8. Suv olish inshootini tashqi ichimlik suvi tarmog‘i chizmasi – ishlandi.
 - 6.1.9. Loyihada suvni hisobga olish jixozlari – ko‘zda tutildi.
 - 6.1.10. Bakteritsid binosi texnologik quvur va uskunalar chizmasi – taqdim etildi.
 - 6.1.11. Ichimlik suv tarmog‘i rejasida va bo‘ylama qirqimda quvurlarni o‘lchamlari va uzunligi – berildi.
 - 6.1.12. Jixoz va uskunalar ehtiyoji jadvali – o‘zgartirildi.

Elektr qismi.

- 6.1.13. Tashqi elektr ta‘minoti chizmasi – taqdim etildi.
- 6.1.14. Elektr tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar – taqdim etildi.

6.2. Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan 4787350,690 ming so‘m miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati 488349,015 ming so‘mga kamaytirilib, **4299001,675 ming so‘m** qilib belgilandi. Xususan:

| | | |
|--------------------------|-------------|-----------|
| Qurilish-montaj ishlari: | 2851462,713 | ming so‘m |
|--------------------------|-------------|-----------|

| | | |
|-------------------------------------|------------|-----------|
| Asbob-uskunalar: | 740492,350 | ming so'm |
| QQS: | 538793,259 | ming so'm |
| Buyurtmachining boshqa xarajatlari: | 168253,353 | ming so'm |

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6.5. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani "Uzumzor" MFY aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash" ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Izoh: Yer qazish ishlarini boshlashdan avval, zaruratga ko'ra muhandislik tarmoqlaridan foydalanuvchi manfaatdor tashkilotlar hamda yo'l korxonasi vakillari ishtirokini ta'minlash lozim.

Bosh mutaxassis: MAXKAMOV TOXIR MARIFJONOVICH